

Normativ-huquqiy hujjatning tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha HISOBOT

1.	Normativ-huquqiy hujjat turi, nomi va rekvizitlari	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Avtomobil transportida yo'lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro, shuningdek yuklarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 30-iyuldagi 636-son qarori. <i>(litsenziya varaqasini berish talabi)</i>
2.	TSTBni o'tkazuvchi davlat organi yoki tashkiloti	Transport vazirligi
3.	Vakolatli organlarning xulosalari olinganligi	Vakolatli organlarning xulosalari olinmagan
4.	Sana	19.06.2026 yil

Tartibga solish ta'sirini baholash natijalari

5.	Xulosa 1. O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida" Qonunining 5-moddasida: Agar jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan faoliyatning (harakatlarning) ayrim turlarini amalga oshirish fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga zarar, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga ziyon, jamoat xavfsizligiga ziyon va (yoki) atrof-muhitga zarar yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lsa, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari joriy etilishi belgilab qo'yilgan. 2. Mazkur Qonunga ilova qilingan Amalga oshirilishi uchun litsenziyalarni olish talab qilinadigan faoliyat turlarining: 16-pozitsiyasida avtomobil transportida yo'lovchilarni tashish faoliyati uchun litsenziya hamda unga quyidagi litsenziyalanadigan faoliyatning kichik turlari kirishi belgilangan: <i>yo'lovchilarni shahar, shahar atrofida va shaharlararo mikroavtobus hamda avtobuslarda tashish;</i> <i>yo'lovchilarni shahar, shahar atrofida va shaharlararo yengil avtomobillarda tashish;</i> <i>yo'lovchilarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha avtobuslarda tashish;</i> <i>yo'lovchilarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha mikroavtobuslarda tashish;</i> <i>yo'lovchilarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha yengil avtomobillarda tashish;</i> 17-pozitsiyasida avtomobil transportida yuklarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyati uchun litsenziya hamda unga avtomobil transportida yuklarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish kichik turi belgilangan. 3. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-iyuldagi 636-son qarori bilan tasdiqlangan "Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti"da (qarorga 1-ilova) quyidagilar belgilangan: avtomobil transportida yo'lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro, shuningdek yuklarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish huquqi uchun namunaviy (oddiy) litsenziyalar beriladi; litsenziya O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonuni bilan belgilangan faoliyatning kichik turlari uchun beriladi; litsenziya asosida har bir avtotransport vositasiga litsenziya varaqasi beriladi; litsenziya varaqasi – litsenziya talablari va shartlariga majburiy tarzda rioya qilingan holda yo'lovchilar va yuklarni tashishda foydalaniladigan har bir avtotransport vositasiga litsenziyalanadigan faoliyat turini amalga oshirish uchun beriladigan ruxsatnoma hisoblanadi;
----	--

litsenziya varaqalari bilan ta'minlanmagan avtomobil transporti vositasidan foydalangan holda tijorat asosida yo'lovchilarni va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha yuklarni tashishga yo'l qo'yilmaydi;

avtotransport vositalari soni to'ldirilgan (ko'paytirilgan) taqdirda davlat boji har bir litsenziya varaqasi uchun qo'shimcha ravishda undiriladi.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-iyuldagi 636-son qarori bilan tasdiqlangan "Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya varaqalari berilganligi uchun undiriladigan davlat boji miqdorlari"da (qarorga 2-ilova) avtomototransport vositasining bir birligi uchun 1 yilga davlat boji summasi (bazaviy hisoblash miqdori karraligida) ko'rsatilgan.

Bundan tashqari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 8-bandiga muvofiq yengil avtotransport vositalarida yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi va shaharlararo tashish faoliyati o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxatiga kiritilsin hamda ular ushbu faoliyat bilan litsenziya varaqasi asosida shug'ullanishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmonining 2-ilovasiga muvofiq 2026-yil 1-yanvardan boshlab o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxati tasdiqlandi.

Mazkur ro'yxatning 72-bandiga asosan yengil avtotransport vositasida yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi va shaharlararo tashish (litsenziya varaqasi bo'lganda) faoliyati o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxatiga kiritildi.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashish qoidalarining:

a) 4-bandiga muvofiq mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar avtobuslarda yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchilarning xavfsizlikni ta'minlashdagi asosiy vazifalaridan biri etib foydalanishda bo'lgan har bir avtotransport vositasida litsenziya kartochkasi mavjud bo'lishini ta'minlash;

b) 19-bandiga muvofiq muntazam qatnovlarni amalga oshiruvchi avtobuslar va yo'nalishli taksilar haydovchilari yo'nalishda ishlayotganda tegishli litsenziyaga (litsenziya kartochkasiga) ega bo'lishi;

v) 56-bandiga muvofiq tashish avtovokzallar (avtostansiyalar) orqali amalga oshirilganda tashuvchi ishda foydalaniladigan avtotransport vositasiga litsenziya (litsenziya kartochkasi) mavjud bo'lishini ta'minlashi belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Davlat boji to'g'risida"gi qonuniga muvofiq faoliyatning ayrim turlarini O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan litsenziyalaganlik uchun to'lanadigan davlat boji miqdorlari yo'lovchi sig'imi hamda avtotransport vositasining birligidan kelib chiqqan holda undirilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur tartib asosida bugungi kunda faoliyatni amalga oshirish uchun yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslarga litsenziyalar hamda ularning harakat tarkibidagi avtotransport vositalariga faoliyat turlaridan kelib chiqqan holda litsenziya varaqalari berib kelinmoqda va o'z navbatida rasmiylashtirilayotgan litsenziya varaqalari uchun yo'lovchi sig'imi hamda avtotransport vositasining birligidan kelib chiqqan holda davlat boji undirilmoqda.

Yuqoridagilarga asosan litsenziya varaqasi har bir avtotransport vositasini identifikatsiyalovchi ruxsatnoma bo'lib, ushbu hujjat bevosita yashirin iqtisodiyotni bartaraf etish hamda harakat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

	4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5647-son Farmoniga ko‘ra: Vazirlik avtomobil, temir yo‘l, havo, daryo transportlari, metropoliten, shuningdek yo‘l xo‘jaligini rivojlantirish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha davlat boshqaruvi organi hisoblanadi; Vazirlik transport va yo‘l xo‘jaligi sohasidagi tashkilotlar faoliyatini normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish, litsenziya va ruxsatnomalar berish, sertifikatlashtirish, samarali texnik va tarif siyosatini amalga oshirish yo‘li orqali davlat tomonidan tartibga solish vazifasini amalga oshiradi; Vazirlik tomonidan o‘z vakolati doirasida qabul qilingan qarorlarning ijrosi davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi.
6.	Hujjatning ta’sir doirasi Tijorat asosida amalga oshiriladigan yo‘lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro, shuningdek, yuklarni xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish faoliyati litsenziyalanadi. Tijorat asosida yo‘lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish faoliyati yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda yo‘lovchilarni shaharda, shahar atrofida va shaharlararo tashish faoliyati o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Tijorat asosida yo‘lovchilarni va yuklarni tashish — tijorat asosida, ya’ni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish yo‘li bilan avtotransport vositalarida yo‘lovchilarni va yuklarni tashish xizmatini ko‘rsatish natijasida daromad olish. Litsenziya varaqasi — litsenziya talablari va shartlariga majburiy tarzda rioya qilingan holda yo‘lovchilar va yuklarni tashishda foydalaniladigan har bir avtotransport vositasiga litsenziyalanadigan faoliyat turini amalga oshirish uchun beriladigan ruxsatnoma (litsenziya). Ariza beruvchining so‘rovnomasiga ko‘ra litsenziyalovchi organ qaroriga binoan — faoliyat turiga litsenziya; ariza beruvchining so‘rovnomasiga ko‘ra avtotransport vositalarining harakatdagi tarkibiga faoliyat turiga berilgan litsenziya asosida — litsenziya varaqalari beriladi.
7.	Hujjatning natijadorligi va samaradorligi So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida avtomobil transportida yo‘lovchilarni tashishda shaxsiy avtomobil egalari faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq bir qator yengillik va qulayliklar joriy qilindi, xususan, yengil taksi faoliyatini amalga oshirish faqatgina yuridik shaxs tashkil qilgan holda yoki yuridik shaxsga o‘z avtomobilini shartnoma asosida ijaraga berib faoliyat amalga oshiriladi edi, bugungi kunda mazkur faoliyat o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ro‘yxatiga kiritildi. Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash lozimki, 2020-yil davomida respublika bo‘yicha avtomobil transportida yuk va yo‘lovchilarni tashish faoliyatini amalga oshirish uchun tashuvchilardan undirilgan davlat boji miqdori 77,9 mlrd. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 211,3 mlrd.ni tashkil qilgan.
8.	Hujjatning ijobiy va salbiy oqibatlar Litsenziya varaqasi har bir avtotransport vositasini identifikatsiyalovchi ruxsatnoma bo‘lib, ushbu hujjat bevosita yashirin iqtisodiyotni bartaraf etish hamda harakat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribaga muvofiq avtomobil transportida ichki yuk tashish faoliyati Germaniya, Fransiya, Polsha, Italiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Turkiya, MDH davlatlarida litsenziyalash hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar bilan tartibga solingan.

I. Ayrim MDH davlatlari misolida 2005-yilda ichki avtomobil transportida tashish faoliyatini litsenziyalash bekor qilinishi transport sohasini liberallashtirish siyosati doirasida amalga oshirilgan edi. Ammo amaliyotda ushbu litsenziyaning bekor qilinishi qator salbiy oqibatlarga olib kelgan, bular:

1. *Yashirin iqtisodiyot ulushining keskin o'sishi – bu eng asosiy va jiddiy kamchilikdir. Litsenziyalashning bekor qilinishi bozorga kirishni to'liq erkin qildi.* Natijada:

- **Soliqlardan ommaviy qochish** litsenziyalash bekor qilinganidan so'ng, ular QQS va daromad solig'idan "ulkan darajada qochish" holatiga duch kelgan. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, tashishlarning 60 foizi dan ortig'i "qora" sxemalar bo'yicha amalga oshiriladi.

- **Demping (narxni sun'iy pasaytirish):** vijdotsiz ishtirokchilar ("bombilalar"), qonun talablariga (soliqlar, rasmiylashtirish, xavfsizlik) rioya qilish xarajatlarini o'z zimmasiga olmasdan, arzonroq narxlarni shakllantirgan. Bu esa qonuniy faoliyat yuritayotgan tashuvchilarning ommaviy ravishda noqonuniy sektorga o'tishi hamda ishchilarni shtatga olinmasligiga olib keldi.

- **Nazoratning yo'qligi:** Masalan, tashish faoliyatini boshlash haqida oddiy xabar berish talabiga tashuvchilarning 20 foizi dan kami amal qiladi, ya'ni soha faoliyatining 80 foizi davlat tomonidan nazorat qilinmaydi. Bu esa davlatning ulkan mablag'larni yo'qotishiga olib keladi.

2. Haddan tashqari raqobat va rentabellikning pasayishi

Raqobatni rivojlantirish uchun mo'ljallangan bozorni liberallashtirish, aksincha, yuk va yo'lovchi tashish bilan barcha xohlovchilar, shu jumladan nosoha vakillari ham shug'ullana boshlashiga olib keldi.

- **"Raqobat cheksiz darajada kuchaydi"** – ekspertlar vaziyatni shunday tasvirlaydi, ya'ni bozorga faqat avtotransport vositasiga ega bo'lgan, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan haydovchilar kirib keldi.

- **Xizmat sifatining pasayishi:** Demping va tashishlar bozorida omon qolish uchun kurash sharoitida kompaniyalarning rivojlanish, avtoparkni yangilash va xodimlar malakasini oshirish uchun mablag'lar yetishmasligiga olib kelmoqda.

3. *Avtomobil transportida yuk va yo'lovchi tashish faoliyati bilan soha mutaxassislari emas, balki boshqa sohalar vakillari shug'ullanishi transport bozorida bir qator salbiy oqibatlarga olib keldi.*

- Litsenziyalash kasbga ruxsat berish hamda tashishlarda xavfsizlikni ta'minlash funksiyasini bajarar edi, tashuvchining harakat xavfsizligi hamda tashish qoidalarini bilishi bu orqali ushbu yo'nalishda sifatli va xavfsiz xizmat ko'rsatilishi ta'minlanar edi. Uning bekor qilinishi bir qator salbiy oqibatlarga olib keldi.

Kasbiy malaka yetishmasligi natijasida yuk tashish qoidalarini, haydovchilarning mehnat va dam olish rejimi hamda transportda xavfsizlik talablarini qo'pol ravishda buzish holatlari tobora ko'payib bormoqda.

Bu esa o'z navbatida yo'l harakati xavfsizligiga tahdid solishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, transport vositalarini noto'g'ri ekspluatatsiya qilinishiga, texnik holatiga yetarlicha e'tibor berilmasligiga hamda yo'l harakati qoidalarini buzilishiga olib kelmoqda.

4. Xizmat sifati pasayishi.

Avtomobil transporti sohasi mutaxassislari:

- yukni saqlash,
- yetkazib berish muddati,
- mijozlar bilan shartnomaviy munosabatlar kabi masalalarga katta ahamiyat beradi.

Nosoha mutaxassislari esa quyidagi holatlarga sabab bo'lmoqda:

- yukning shikastlanishi;
- kechikishlar;
- shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslik.

Avtomobil transportida yuk yoki yo‘lovchi tashish bilan nosoha vakillarining shug‘ullanishi kasbiy malaka yetishmasligi, yo‘l harakati xavfsizligining pasayishi, xizmat sifati yomonlashishi va bozorda nosog‘lom raqobat muhiti shakllanishiga olib keldi. Shu sababli transport bozorida faoliyat yurituvchi subyektlar uchun aniq huquqiy talablar va nazorat mexanizmlarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Yevropa tajribasi: Yevropa Parlamenti va Kengashining 2009-yil 21-oktabrdagi 1071/2009-sonli Reglamentida avtomobil transporti operatorlari faoliyatiga ruxsat berish tartibi belgilangan.

Ma‘lumot uchun: “avtomobil yuk transporti operatori” deganda har qanday korxonaning haq evaziga yoki ijara shartlari asosida yoki mexanik transport vositalari, yoki transport vositalari sostavlari yordamida yuk tashish faoliyati tushuniladi.

Yevropaga a‘zo davlatlarda avtomobil transporti operatorlari alohida kasb sifatida tan olingan hamda unlar quyidagi talablarni bajarishga majbur:

- a‘zo davlat hududida samarali va barqaror faoliyat yurituvchi muassasaga ega bo‘lishi;
- ishonchli va halol ishbilarmonlik obro‘sigga ega bo‘lishi (tashish qoidalari, yo‘l harakati qoidalari, mehnat rejimini va ushbu yo‘nalishda boshqa qonunchilik talablarini buzmagandligi);
- yetarli darajadagi moliyaviy barqarorlikka ega bo‘lishi (misol tariqasida tashuvchining hisob raqamida – 9,0 ming yevro mablag‘ bo‘lishi, har bir avtotransport vositasiga – 5,0 ming yevro mablag‘ bo‘lishi lozim);
- talab etilgan kasbiy malaka (professional kompetentlik)ga ega bo‘lishi.

Shu bilan birga, avtomobil tashuvlari operatori faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona kamida bitta jismoniy shaxsni – **tashishlar bo‘yicha menejerni tayinlashi shart**. Tashishlar bo‘yicha menejeri – transport vositalarining texnik xizmat ko‘rsatilishini boshqarish, transport shartnomalari va hujjatlarini tekshirish, boshlang‘ich buxgalteriya hisobini yuritish, yuklar yoki xizmatlarni haydovchilar va transport vositalari o‘rtasida taqsimlash, shuningdek xavfsizlik tartib-taomillariga rioya etilishini tekshirish kabi vazifalarni bajaradi.

Yuqoridagi talablarga muvofiq bo‘lgan tijorat asosida avtomobil transportida yuk tashish uchun vakolatli organ tomonidan litsenziyalanadi hamda har bir avtotransport vositasi uchun alohida litsenziya nusxasi taqdim etiladi.

Mazkur hisobotning to‘g‘riligi va ma‘lumotlarning ishonchliligini tasdiqlayman.

**Davlat organi
(tashkiloti) rahbari**

(imzo)

(F.I.O.)